




DEVELOPED SPORTS IN IRAN

Muhammadulloh Mavlonbekov

1st-year student of the Persian-English group
 "Iranian and Afghan Studies" Faculty
 Tashkent State Institute of Oriental Studies

S. Sultanxodjayeva

Senior Lecturer
 "Iranian and Afghan Studies" Faculty
 Tashkent State Institute of Oriental Studies
 Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: National sports, developed sports, borrowed sports terms.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article discusses the national and developed sports in Iran. The main purpose of writing this article is to differentiate the national sports games and the developing sports in the Islamic Republic of Iran and to study their Persian names.

ERONDA RIVOJLANGAN SPORT TURLARI

Muhammadulloh Mavlonbekov

1-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
 "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi
 Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
 Toshkent, O'zbekiston

S. Sultanxodjayeva

katta o'qituvchi
 "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi
 TDSHU
 Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Milliy sport turlari, rivojlangan sport turlari, oʻzlashgan sport atamallari.

Annotatsiya: Maqolada Eronda mavjud boʻlgan milliy va rivojlangan sport turlari haqida fikr yuritilgan. Bu mavzu boʻyicha maqola yozishdan asosiy koʻzlangan maqsad Eron Islom Respublikasida mavjud boʻlgan milliy sport oʻyinlari va rivoj topayotgan sport turlarini ajratish va forsha nomlarini oʻrganishdan iborat.

РАЗВИТЫ ВИДЫ СПОРТА В ИРАНЕ

Мухаммадуллох Мавлонбеков

Студент 1-го курса персидско-английской группы

Факультет "Иранистика и афганистика"

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

С. Султанходжаева

старший преподаватель

факультета "Иранистика и афганистика"

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Национальные виды спорта, развивающиеся виды спорта, заимствованные спортивные термины.

Аннотация: В статье рассматриваются национальные и развивающиеся виды спорта в Иране. Основная цель написания статьи заключается в выделении национальных спортивных игр и развивающихся видов спорта в Исламской Республике Иран, а также в изучении их персидских названий.

Tadqiqot ishining manbalari. Maqolada asosan internetdan olingan manbalar va "Youtube" platformasida faoliyat olib boruvchi bloglardan yuklab olingan ma'lumotlardan foydalanildi. "Sport magazine", "Iran international" va Reza Nazari Youtube bloglaridan foydalanildi.

1. Eron milliy sportlari

زورخانه – Kuchlar uyi degan ma'noni beradi. Bu Eronning eng qadimiy sport tizimi va musobaqalar o'tkaziladigan joy bo'lib, u kurash, jismoniy mashqlar va jang san'atlari bilan bog'liq. U fors jangchilari va pahlavonlarining jismoniy va ma'naviy tarbiyasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan. Qadimgi Fors imperiyasida jangchilarni tayyorlash uchun ishlatilgan tizimdir.

کشتی (Eron kurashi). Kurash degan ma'noni beradi. Bu sport turi Eronning eng mashhur va qadimiy sport turi hisoblanadi. کشتی Eron madaniyatida muhim o'rin tutadi va bu sport turi bo'yicha ko'plab musobaqalar o'tkazilib turiladi. Bu sport turi jang san'ati va milliy an'analar bilan bog'liqdir. کشتی bir necha turlarga bo'linadi.

1. کشتی پهلوانی - pahlavonlik kurashi.

Eng qadimiy va sharaflı turi hisoblanadi va ushbu kurash g'olibiga "Pahlavon" unvoni beriladi.

2. کشتی با چوخ - kamzulli kurash.

Janubiy Eronda keng tarqalgan bo'lib, sport ustalari maxsus kamzul(چوخ) kiyib olishadi. Texnika jihatidan Kavkaz kurashiga yaqin sanaladi.

3. کشتی تخته - Kurashning bu turida sportchilar kichik doira ichida kurash olib boradilar.

5. ورزش کشتی باستانی - Qadimiy kurash sporti bo'lib, jismoniy kuch, chidamlilik va an'anaviy jang san'atlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu sport yo'nalishi bo'yicha har yili Navro'z bayramida maxsus musobaqalar o'tkaziladi. Eronning turli viloyatlarida mahalliy kurash turnirlari tashkil etiladi. Va Xalqaro sport musobaqalarida sportchilari juda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelishadi. Ushbu sport bizning yurtimizdagi kurash sport turigaga misol bo'la oladi.

ورزش باستانی: Bu sport qadimiy va an'anaviy Eron sporti bo'lib, jismoniy mashqlar, kurash va gimnastik elementlarni o'z ichiga oladi. Eronda زورخانه deb ataladigan maxsus joylarda amalga oshiriladi. Jismoniy mashqlar, jang san'atlari, hatto musiqa va ma'naviyatni ham o'z ichiga oladi. Bu sport turi زورخانه پهلوانی marosimi nomi bilan ham mashhur va UNESCO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida tan olingan ورزش باستانی nafaqat Eronda, balki Afg'oniston, Ozarbayjon mamlakatlarida ham mashhurdir.

Tarixi: Qadimgi fors jangchilari bu sport turidan harbiy tayyorgarlik sifatida foydalanishgan. Islom davrida sport ma'naviy jihatdan rivojlanib, axloqiy va jismoniy mukammallik tamoyillarini o'z ichiga olgan. زورخانه mashg'ulotlari musulmon so'fiylik falsafasi bilan uyg'unlashib, nafaqat kuch, balki ruhiy poklikni ham ta'kidlaydi.

ورزش باستانی elementlari:

1. میل - og'ir yog'och to'qmoqlardan foydalaniladi va sportchilar ularni qo'llari bilan aylantirib mashq qilish uchun ishlatishadi.

2. کباده - og'ir, egilgan temir kamon bo'lib, uzunligi 1-1.5 metr bo'ladi va u bilan quvvat va nafas nazorat qilinadi.

3. سنگ - yassi toshlar, sportchilar ularni yelka va qo'llari bilan ko'tarishadi.

4. چرخ زدن - tanani aylantirish mashqlari, bu muvozanatni ushlash va koordinatsiyani rivojlantirish uchun bajariladi.

چوگان - Eron ot sporti (polo).

چوگان ya'ni fors ot polosi Eronda paydo bo'lgan eng qadimiy ot sportlaridan biri bo'lib, u bugungi kunda dunyo bo'ylab mashhur bo'lgan polo o'yinining ajdodi hisoblanadi. Bu sport milloddan avvalgi 7-asrdan boshlab fors imperatorlari va zodagonlari o'rtasida juda mashhur bo'lgan. UNESCO 2017-yilda چوگان ni Eronning nomoddiy madaniy merosi sifatida ro'yxatga oldi.

چوگان o'yini qoidalari va tuzilishi:

1. O'yin ikkita jamoa o'rtasida o'tkaziladi. Har bir jamoada 3dan 6 nafargacha chavandoz bo'ladi
2. Bu o'yinning maydoni taxminan 200x100 metr bo'lib, futbol maydoniga o'xshash bo'ladi.
3. Asosiy maqsad. Chavandozlar yog'och tayoq yordamida kichik to'pni raqib darvozasiga urishlari kerak bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, چوگان ot bilan xokkey o'ynashdir.
4. O'yin vaqti. O'yin 6ta bo'lim (چوکه)dan iborat bo'ladi, har bir 10-7 چوکه daqiqa davom etadi.
5. Otlarning roli. Otlar maxsus tayyorlanadi va juda tez harakat qilishi kerak. Eronning Turkman va Arab ot zotlari چوگان o'yinida eng taniqlisidir.
6. O'yin davomida mushtarak, ya'ni milliy musiqalar chalib turiladi.

چوگان – bu nafaqat qadimgi sport, balki Eronning boy va madaniy merosining bir qismidir. U jismoniy chaqqonlik, ot minish mahorati va jamoaviy o'yinni talab qiladi. Eron davlati hanuzgacha bu o'yinni targ'ib qilib keladi

سنگ گرفتن – tosh ko'tarish sporti.

Bu sport زورخانه sportining muhim elementlaridan bo'lib, kuch va chidamlillikni sinovdan o'tkazish uchun mo'ljallangandir. Ushbu sport qadimiy fors jangchilari va pahlavonlari tomonidan harbiy tayyorgarlik uchun ishlatilgan. Bu sport kurash va og'ir atletika sporti bilan bog'liq bo'lib, jismoniy tayyorgarlik uchun ishlatiladi.

Qoidalari va xususiyatlari:

Og'irlik. Toshlarning vazni 30 kgdan 100 kg yoki undan og'irroq bo'lishi mumkin. Toshlar odatda tekis yoki biroz egri shaklda bo'ladi, musobaqalarda ikki kichik tosh yoki bitta katta tosh ishlatiladi.

Ko'tarish. Sportchilar toshni yelkadan boshi uzra yoki ikkala qo'lda muvozanat saqlab ko'tarishadi.

Maqsad. Sportchi toshni iloji boricha uzoq vaqt ko'tarib turishi yoki ma'lum bir masofaga olib borishi kerak bo'ladi. Bu sportda jismoniy kuch bardoshlilik va muvozanatni oshirishga xizmat qiladi.

سنگ گرفتن ko'tarish sporti sanaladi.

Bu sport زورخانه sportining muhim elementlaridan bo'lib, kuch va chidamlillikni sinovdan o'tkazish uchun mo'ljallangandir. Ushbu sport qadimiy fors jangchilari va pahlavonlari tomonidan harbiy tayyorgarlik uchun ishlatilgan. Bu sport kurash va og'ir atletika sporti bilan bog'liq bo'lib, jismoniy tayyorgarlik uchun ishlatiladi.

Qoidalari va xususiyatlari:

Og'irlik.Toshlarning vazni 30 kgdan 100 kg yoki undan og'irroq bo'lishi mumkin.Toshlar odatda tekis yoki biroz egri shaklda bo'ladi,musobaqalarda ikki kichik tosh yoki bitta katta tosh ishlatiladi.

Ko'tarish.Sportchilar toshni yelkaga,boshi uzra yoki ikkala qo'lda muvozanat saqlab ko'tarishadi.

Maqsad.Sportchi toshni iloji boricha uzoq vaqt ushlab turishi yoki ma'lum bir masofaga olib borishi kerak bo'ladi.

Eronning milliy sport tadbirlarida va زورخانه musobaqalarida hanuzgacha o'tkazilmoqda.Musobaqa g'oliblari "Pahlavon" unvoni bilan taqdirlanadilar. سنگ گرفتن o'zimizning milliy bayramlarimizda bo'lib o'tadigan tosh ko'tarish o'yiniga misol bo'la oladi.

تیر اندازی kamondan o'q otish sporti.

Eronning qadimiy sport san'atlaridan biri bo'lib,qadimda jangchilar va ovchilar uchun muhim mahorat hisoblangan. An'anaviy musobaqalar va turli marosimlarda bu sport turi muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda eronlik sportchilar Olimpiya va Jahon chempionatlarida ishtirok etib kelishmoqda.

Turlari.

1. تیر اندازی سنتی an'anaviy kamondan o'q otish turi bo'lib,qadimiy fors kamondalaridan foydalaniladi.Kamonlar yog'ochdan yasaladi.

2. تیر اندازی ورزشی sport kamondan o'q otish turi.

Olimpiya va xalqaro musobaqalarda ishtirok etiladi va zamonaviy sport kamondalaridan foydalaniladi.

Bu sport Eron tarixida va zamonaviy sportida muhim o'rin tutuvchi an'anaviy va professional sport turi hisoblanadi.U jang san'ati,harbiy tayyorgarlik va sport musobaqalarini o'z ichiga oladi.

1.Erondagi zamonaviy sport turlari

والیبال – Eronning dunyo arenasidagi kuchli sportlaridan biridir.Bu sport Eronda eng ommabop sport turi hisoblanadi. Volleybol Eronda 1920-yilda paydo bo'lgan.Eron bu sport turida 3 marta osiyo chempioni,Jahon ligasi kumush medali sohibi,Jahon chempionati va Olimpiada ishtirokchisi hisoblanadi.

Volleybolchilar. سعید معروف (Said Maruf), امیر غفور (Amir Gafur), محمد موسوی (Muhammad Musavi) eronlik mashhur volleybol ustalaridir.Shuningdek Eronda ichki volleybol ligasi mavjud bo'lib, پیکان تهران , فولاد سیرجان, سایپا تهران, bo'lib, eng kuchli va mashhur jamolaridir.Bugungi kunda Eron volleyboli jadal o'sib bormoqda va boshqa jamaolar uchun raqobatbardosh jamoa shakllanmoqda.

Grammatikada ishlatilishi. والیبال بازی bu ot so'z turkumidir. Bu so'zni o'zbek tilida qanday talaffuz qilsak, forschada ham shunday talaffuz qilishimiz mumkin.

Fel so‘z turkumi esa shu so‘zga کردن fe‘lini qo‘shish orqali shakllantiriladi. Masalan, شما والیبال tarjimasi siz volleybol o‘ynayapsiz.

Atamalar. Volleybol sport turidagi atamalarning forchasini ko‘rib chiqamiz.

تعويض موقعیت bu har bir ochkodan keyin o‘yinchilarning joy almashishi uchun ishlatiladigan so‘zdir.

ليبرو bu so‘z hujumga chiqa olmaydigan va boshqa o‘yinchilardan boshqa rangli forma kiyib olgan himoyachiga nisbatan ishlatiladi.

حمله bu atama hujum harakati, to‘pni raqib maydoniga yo‘naltirish ma’nosini beradi.

کاپیتان bu jamoa sardoriga nisbatan ishlatiladi va kapitan ma’nosini bildiradi.

تکواندو Taekvando Eronidagi mashhur sport turlaridan biri sanaladi. Bu sport 1970 - yilda rasmiy sport turi sifatida tan olingan va 2000 - yildan boshlab Olimpiyadada ishtirok eta boshlagan. Eronlik sportchilar yaxshi natijalar qayd etishgan. Masalan, هادی ساعی (Hodi Soi) 2 karra Olimpiyada chempioni hisoblanadi. 2004 va 2008 – yillari sovrin yutgan. کیمیا علیزاده (Kimiyo Alizode) ham eronlik mashhur taekvandochi hisoblanadi. U Eron tarixida birinchi bor Olimpiyadada medal olgan ayol hisoblanadi. U 2006 - yil Rioda bo‘lib o‘tgan Olimpiyadada bronza medali sohibasidir. Eronida ushbu sport turi bo‘yicha milliy taekvando musobaqalari o‘tkaziladi. Osiyo va Jahon chempionatlari uchun ham turnirlar tashkillashtiriladi.

Terminlar.

مسابقه – Musobaqa

تاتامی – Jang maydoni

داور – Hakam(referee)

حمله – Hujum

ضربه پا – Oyoq bilan zarba

ضربه مستقیم – To‘g‘ri zarba

پیروز – G‘alaba

تساوی – Durang

شکست – Mag‘lubiyat

شطرنج بازی Shaxmat Eron mamlakatida qadimdan mashhur bo‘lgan sport turi bo‘lib, so‘ngi o‘n yillikdan beri juda tez rivojlanib kelmoqda va eronlik shaxmatchilar jahon miqiyosida kuchli o‘yinchilarga aylanishmoqda. Eron shaxmati 20 - asrda xalqaro musobaqalarda ishtirok eta boshladi va so‘ngi yillarda eronlik shaxmat ustalari jahon reytinglarida yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritishmoqda. Masalan, علیرضا فیروزجا dunyodagi eng kuchli yosh shaxmatchilardan biridir. FIDE reytingida 2800+ elo reytingiga erishgan birinchi eronlik sanaladi. Shu bilan birga Eron shaxmat musobaqasida bir necha bor Osiyo chempionatlarida g‘olib bo‘lgan va Olimpiadada yaxshi natijalarga erishgan.

Grammatikada ishlatilishi. شطرنج بازی - bu ot so‘z turkumi bo‘lib, shaxmat o‘yini deb tarjima qilinadi.

Agar biz fe‘l sifatida ishlatmoqchi bo‘lsak, شطرنج بازی fe‘lini ishlatamiz.

Misol uchun, من با شطرنج بازی می کنم ya‘ni men siz bilan shaxmat o‘ynayapman deymiz. Hozirgi zamon ifodalash uchun کردن fe‘lining hozirgi zamon negizi (کن) va می qo‘shimchasi yordamida gap tuzamiz.

Terminlar.

صفحه شطرنج – shaxmat doskasi

شاه – shoh

مات – mot

ترفیعی – piyodani boshqa figuraga o‘zgartirish

bu, shubhasiz, Eronda eng rivojlangan sport turidir. Eron milliy terma jamoasi Osiyodagi kuchli beshlik davlatlar orasida turadi. Bu milliy jamoa Jahon chempionatlarida bir necha bor ishtirok etgan va Osiyo chempionatida ham yaxshi natijalarga egadir. Masalan, 1968, 1972, 1976-yillar Osiyo kubogi g‘olibi, 6 karra Jahon chempionati ishtirokchisi hisoblanadi. Shuningdek, Eron terma jamoasi O‘zbekiston milliy terma jamosiga qarshi ancha yillardan beri o‘ynab keladi va bizning ashaddiy raqibimiz, hatto bizni bir necha bor Jahon chempionati yo‘llanmasidan mahrum qilgan terma jamoa hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, bizning 3 nafar hamyurtimiz Jaloliddin Masharipov (استقلال), Oston O‘runov (پرسپولیس) va O‘tkir Yusupov (فولاد) Eron chempionatida o‘z karyerasini olib bormoqdalar.

Futbolchilari. Ali Doyemi 109 ta gol bilan milliy jamoaning to‘purari sanaladi.

Mehdi Taremi hozirgi kunda Eronning va Osiyoning eng kuchli to‘p o‘n o‘yinchilaridan biridir. Hozirgi kunda Italiya chempionatida hamyurtimiz Eldor Shomurodovga raqobatchi sifatida “Inter” klubida to‘p surmoqda.

Grammatik qurilishi. Futbol so‘zi fors tilida فوتبال shaklida yoziladi.

Agar biz “Men ertaga futbol o‘ynayman” demoqchi bo‘lsak, من فردا فوتبال بازی می کنم shaklida aytamiz. Futbol so‘zini o‘zbekchada qanday talaffuz qilsak, fors tilida ham shunday talaffuz qilamiz.

Endi bir nechta futbol atamalar bilan tanishib chiqamiz.

Atamalar.

تیم – jamoa

فوتبال بازیکن – futbolchi

دروازه بان – darvozabon.

مدافه مرکزی – markaziy himoya

هافبک مرکزی – markaziy yarim himoya

مهاجم – hujumchi

ضربه آزاد – jarima zarbasi

Xulosa. Eronning sport turlarini o'rganish uchun olib borilgan tadqiqotlar bizga eronlik insonlarning turli sport turlariga, sog'lom turmush tarziga bo'lgan e'tibori yuqori ekanligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimizga oz bo'lsa ham yordam berdi. Biz o'rganishlarimiz davomida Eronning milliy, zamonaviy rivojlangan sport turlari bilan tanishib chiqdik va o'zbekcha tarjimasini ham berdik. Milliy sportlardan والیبال, شطرنج, فوتبال, zamonaviy sportlardan esa چوگان, سنگ گرفتن kabi sport yo'nalishlarini ko'rib chiqdik. Bu yo'nalishda maqola yozishdan maqsad Eronning milliy va rivojlangan sport turlari haqida ma'lumot yetkazish edi. Bunga esa o'zimizda sportga, ayniqsa, Eron sportiga bo'lgan qiziqish undadi deya olaman. Kelgusi ishlarimizda bundan ham ko'proq tadqiqotlarni tahlil etishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Amir Said Vakil "Xalqaro sport huquqlari va futbol", Pensilvaniya, 2015.
2. Ali Haqshenos "Jang san'ati ensiklopediyasi", Tehron, 2016.
3. "Wikipedia", "Iranpress.com", "Iran daily" saytlari.
4. Reza Nazari, Iran international, Sport magazine Youtube bloglari.